

# **TIJORAT BANKLARIDA ZAMONAVIY BANK MENEJMENTINI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403453>

**Sharipova Mushtariy Obloyorovna**  
*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tijorat banklarida zamonaviy bank menejmentini rivojlantirish yo'llari, shuningdek tijorat banklarida zamonaviy bank menejmenti amaliyotlarining zaruriyati va afzalliklari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** bank, risk, menejmenti, bank menejmenti

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bank sohasi qiziqarli, dolzarb va ustuvor sohalardan biri hisoblanadi, chunki iqtisodiy jihatdan dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga chiqib olishni vazifasi etib belgilagan respublikamiz taraqqiyotida va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bank va bank tizimining salmoqli ulushi bor.

O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda ikki pog'onali bank tizimi shakllantirildi va banklarning amalga oshiradigan operatsiyalari xalqaro darajaga ko'tarildi. Xususan bank tizimining erkinlashtirilishi va xususiy lashtirilishi bunga misol bo'la oladi. Banklarning ixtisoslashuvidan voz kechish va ular faoliyatining universallashuvi ham aynan mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarning biri hisoblanadi.

Har bir korxona va tashkilot faoliyatini amalga oshirishning muhim masalalardan biri boshqaruv masalasi. Tijorat banklari ham ko'zlangan strategik va joriy maqsadlarga erishish uchun samarali boshqaruv tizimiga ega bo'lishi talab etiladi. Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida «Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish uchun avvalambor, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xizmat qiladigan tarmoqlar, jumladan, tijorat banklari tarmog'i faoliyatini rivojlantirmay turib, ma'rifatli bozor sari aniq qadam tashlash to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas.» deb ta'kidlab o'tganlar. Mamlakatimiz hukumati va Markaziy banki iqtisodiyotni bosqichma-bosqich isloh qilish qoidasiga rioya qilgan holda bank-moliya sektorida samarador likka erishishga, institutional o'zgarishlarning unumdarligini oshirish va boshqaruv tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Chunki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari

aynan bank tizimining barqarorligiga bog'liq. Bizga ma'lumki, iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish fiskal va monetar usullar asosida amalga oshiriladi. Tijorat banklari faoliyatini boshqarishda va uni tartibga solib borishda monetar vositalardan foydalanish samarali va ta'sirchanligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, menejment so'zi. inglizcha «management» so'zidan olingan va o'zbek tilida "boshqarish" ma'nosini anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda ba'zi hollarda "korxonani boshqarish" deb tushunilsa, ba'zida "korxonani boshqarish shakli, vositalari, tamoyillari va bilimlar yig'indisi" deb ta'riflanadi. Ushbu yondashuv hozirgi sharoitda korxonalar faoliyatini boshqarish chuqur bilim va vositalarga ega bo'lishni talab etadi. Tijorat korxonasi sifatida banklar faoliyatini boshqarish ma'lum bir sohadagi bilimlar bilan kifoyalanmasdan, barcha tarmoq va sohalar bo'yicha bilimga va tushunchalarga ega bo'lishni talab etadi.

Shunday qilib, zamonaviy bank menejmenti - bu banklar faoliyatida xodimlarni, moliyaviy xizmat va operatsiyalarni hamda bankning moliyaviy natijalarini boshqarish shakli, vositalari va maxsus bilimlar yig'indisidir. Bank menejmenti boshqaruv faoliyatining ob'yekti bo'lib, nazariy va amaliv soha hisoblanadi. Bank menejmenti fan sifatida o'zida ma'lum soha faoliyatining nazariy va uslubiy asoslarini o'zida ifoda etadi. Amaliy faoliyat sifatida esa, ma'lum tijorat bankini boshqarish va tashkil qilish shakli hisoblanadi.

Zamonaviy bank menejmenti o'z navbatida ikkiga bo'linadi.

1. Moliyaviy menejment
2. Hodimlar menejmenti

Banklarda moliyaviy menejment bankning pul mablag'larini boshqarishga asoslanadi. Unga banklarning iqtisodiyotdagi roli, maqsad va vazifalari, ob'yektlari, usullari va bank faoliyatini boshqarishni o'z ichiga oladi. Moliyaviy menejment orqali tijorat banklari likvidligini boshqarishi, moliyaviy resurslarini boshqarish, kredit, investitsion va valyuta portfelinini boshqarishi, moliyaviy natijalarini va balansdan tashqari operatsiyalarini boshqarishi mumkin. Tijorat banklari kutilayotgan daromad darajasini ushlab turgan holda risk darajasini

minimallahtiradi. Demak, moliyaviy menejment bank menejmentining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Zamonaviy bank menejmenti o‘z tarkibiga moliyaviy menejmentdan tashqari xodimlar menejmentini o‘zida mujassamlashtiradi. Xodimiar menejmentida bank mutaxassislari va yollangan xodimlarni boshqarish amalga oshiriladi.

Zamonaviy bank menejmenti boshqaruv faoliyati sifatida o‘z ichiga quyidagi elementlarni oladi: ob’ekt, sub’yekt, vositalar (instrumentlar) protsedura va huquqiy ta’minot.

Bank menejmentining maqsadi bank faoliyatini amalga oshirishni ta’minlash bo’lib , tijorat bankingning yuqori foyda olishini va bozorda o‘z o’rniga ega bo’lishni ta’minlashi lozim.

Zamonaviy bank menejmentining maqsadi ikkiga ya’ni iqtisodiy va ijtimoiy maqsadga bo’linadi. Banklarning tijorat tashkiloti ekanligidan kelib chiqib, Zamonaviy bank menejmentining iqtisodiy maqsadi - bu yuqori foyda olishdir. Birlamchi maqsad foyda olish hisoblanib, bank ta ’sischilari, ya’ni bank egalari o‘z mablag’lari yo’naltirishdan yuqori foyda olishni ko’zlaydi. Bank faoliyatining yuqori foyda olishini ta’minlash bank xodimlarining maqsadi bo’lishi lozim. Tijorat banklari kam xarajat hisobiga yuqori foyda olishni ko’zlaydi. Ma’lumki, tijorat banklari iqtisodiyotda bo’sh turgan mablaglarni akkumlyatsiya qiladi. Bunda zamonaviy bank menejmenti maqsadi yig'ilgan mablag'larni omonatchilarga o‘z vaqtida va to’laligicha qaytarilishi hamda ishonchli saqlanishini ta’minlashga yo’naltirilishi lozim. Demak, ushbu maqsadni amalga oshirish banklarda joriy va qisqa muddatli likvidlilikni, aktiv va passivlarni muddati va miqdorining muvofiqligini ta’minlashni, kredit portfeli sifatining yuqori bo’lishi va zarur naqd pul zahiralariga ega bo’lishni talab etadi. Shunday qilib, bank menejmentining ijtimoiy maqsadining avrim jihatlari vujudga keladi. Chunki, iqtisodiyot taraqqiyotida tijorat banklari tomonidan ishlab chiqarishga, strategik maqsadlarga va turli tarmoqlarga, rivojlanmagan hududlarga kreditlar ajratilib ularning ehtiyojlari qondiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining kreditlari milliy iqtisodiyotning rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan investitsion xarajatlarni va xo’jalik

sub'yektlarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini moliyalashtirishning muhim manbaidir. Bundan tashqari, aholining turmush farovonligini oshirish, o'z navbatida ishlab chiqaruvchilarning tovarlari realizatsiyasini tezlashtiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, banklar faoliyatini boshqarish - rejorashtirish, tashkil qilish, tartibga solish va nazorat qilish kabilardan iborat bo'lib, ular banklar faoliyatining samaradorligini va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" gi qonun, 30-modda. <https://lex.uz/acts/-4590452>
2. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 5-modda. <https://lex.uz/docs/-4581969>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023 yil 1 dekabrdagi byulleteni.
4. S.Elmirzayev va boshqalar. Moliya bozori. //: Darslik, – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 222 b.
5. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
6. Jumaniyazov Inomjon Turaevich, & Juraev Maqsud Annaqulovich (2022). Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni baholash usullari. Science and Education, 3 (5), 1646-1654.
7. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action-Fluctuation and Noise Letters, 2023
8. I. T. Jumaniyazov 2021. The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology. 25, 2 (Mar. 2021), 109–116.
9. Jumaniyozov, I. "ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS." International Finance and Accounting 2020.5 (2020): 1.
10. I. T. Jumaniyazov, . "Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds". The American Journal of Management and Economics Innovations, vol. 3, no. 05, May 2021, pp. 30-37,
11. Ortiqov O. A. Bank menejmenti va marketingi. O'quv qo'llanma. T: - Iqtisod-moliya, 2015 y. 220 b.
12. Raxmatullayeva F.M., Abdulloyev A.J., Giyazova N.B., Narzullayeva G.S. Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti o'quv qo'llanma.2021.